Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 3 (2024) · “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish tendensiyalari” mavzusidagi respublika il...

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 15 мартдаги “Ички истеъмол бозорини асосий турдаги озиқ-овқат махсулотлари билан кафолатли таъминлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги №135 қарори.
3. Мирзиёев Ш.М. Мева-сабзавотчилик тармоғини янада ривожлантириш ва экспортини ошириш, аҳоли томорқаларидан самарали фойдаланишни таъминлаш масалаларига бағишланган видеоселектор йиғилиши. 05.11.2019. www.xabar.uz.
4. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Тошкент, “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 56 б.
5. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 485 б.
6. Мирзиёев.Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 103 б.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ги ПФ-4947-сонли Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.
8. Муртазаев О., Ахроров Ф., Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти. Дарслик, -Т.: “ILM ZIYO”, 2017 й.

XITOY MAHSULOTLARI NEGA ARZON? - UNGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Abduqayumov Jaloliddin Jo‘rabek og‘li
TDIU Andijon fakulteti
Iqtisodiyot talim yo‘nalishi 60/23 guruh talabasi
Kurbonov Jasurbek Pozilovich
TDIU Andijon fakulteti
“Mutaxassislik fanlari” kafedrasi mudiri, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada Bugungi kunda iqtisodiyoti shiddat bilan o‘sib borayotgan Xitoy iqtisodiyoti va jahon bozorini qisqa vaqt ichida egallashga ulgurgan savdo siyosati va kompaniyalarining muvaffaqiyat omillari, tajribalari va uni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari tahlili bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: biznes, savdo, investitsiya, tovarlar va xizmatlar, ishlab chiqarish, eksport, elektron savdo.

Xitoy global dunyoda bir necha mahsulot turlarini ishlab chiqarish bo‘yicha birinchi o‘rinlarda turadi. Uning iqtisodiy salohiyatining asosiy omillari ichida to‘rt ta bosh ishlab chiqarish tarmoqlari mavjud: elektronika va telekommunikatsiyalar, kichik va o‘rta bizneslar uchun ishlab chiqarish, texnologiyalar va transport

Published: 17.05.2024
Cite this article: Abduqayumov Jaloliddin Jo‘rabek o‘g‘li, Kurbonov Jasurbek Pozilovich (2024). Xitoy mahsulotlari nega arzon? - unga ta’sir etuvchi omillar. Emro Science and Education, 1(3). https://journal.emro.uz/public/maqola/112
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

vositalarining ishlab chiqarilishi, shuningdek, kichik va o‘rta bizneslar uchun xizmatlar sohasida rivojlanish.

Xitoyning asosiy eksport mahsulotlari elektronika, telekommunikatsiya vositalari, kompyuterlar, mobil telefonlar, avtomobillar, tekstil mahsulotlari, mashinalar va qurilish materiallari kabi hisoblanadi. Xitoyning katta shaharlarida esa savdo markazlari va eng yirik bozorlar mavjud, masalan, Pekin, Shanhay, Guangzhou va Xongqiao.

Xitoyning iqtisodiy salohiyatining o‘sishiga esa har xil sabablar asosiy ro‘l o‘ynaydi, masalan, katta va mehnat resurslariga boy mamlakat bo‘lishi, murakkab ishlab chiqarish tizimi va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishga ajratilgan investitsiyalar. Xitoyning dunyo bozoridagi o‘rni keyingi yillarda ham kuchayib borishi kutilmoqda.

Xitoyning dunyoga mashxur bo‘lgan mahsulotlari bilan 21-asrda dunyoga dong‘i ketgan sifatli va arzon mahsulot ishlab chiqaradigan Xiaomi kompaniyasi haqida so‘z boshlasak.

Dunyoda telefon ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha 1-o‘rinda bo‘lgan xitoyning xaomi kompaniyasi sifatli mahsulotlarini qanday qilib arzon sotib foyda ko‘radi va qanday qilib bir vaqtning o‘zida mahsulot sifatini tushirmasdan arzon va sifatli mahsulot ishlab chiqarish mumkin.

Dunyoning yetakchi telefon ishlab chiqaruvchi kompaniyalari mahsulotlaring jahon bozoridagi ulushi:

2020- yil

- Samsung: 253 million dona (bozor ulushi 18,8 %)
- Apple: 199,8 million dona (bozor ulushi 14,8 %)
- Huawei: 182,6 million dona (bozor ulushi 13,5 %)
- Xiaomi: 145,8 million dona (bozor ulushi 10,8 %)
- OPPO: 111,8 million dona (bozor ulushi 8,3 %)
- Boshqalar: 454,8 million dona (bozor ulushi 33,7 %)
- Jami: 1 347,9 million dona (100 % bozor ulushi)

2021- yil

- Apple: 237 million dona (bozor ulushi 16 %)
- Samsung: 272 million dona (bozor ulushi 21 %)
- Xiaomi: 190 million dona (bozor ulushi 14 %)
- OPPO: 143 million dona (bozor ulushi 11 %)
- Vivo: 131 million dona (bozor ulushi 10 %)
- Boshqalar: 413 million dona (bozor ulushi 28 %)
- Jami: 1,391 million dona (100 % bozor ulushi)

2022- yil

- Samsung: 260.9 million dona (bozor ulushi 21.6%)
- Apple: 226.4 million dona (bozor ulushi 18.8%)
- Xiaomi: 153.1 million dona (bozor ulushi 12.7%)
- OPPO: 103.3 million dona (bozor ulushi 8.6%)
- Vivo: 99.0 million dona (bozor ulushi 8.2%)
- Boshqalar: 362.7 million dona (bozor ulushi 30.1%)

• Jami: 1.2005 milliard dona (100 % bozor ulushi)[1]

Hozirgi kunda dunyoning yetakchi telefon kompaniyalari mahsulotlari narxi

Redmi 13 pro 8/256gb 275 dollar

Samsung s 23 ultra 8/256gb 1250 dollar

Iphone 13 pro max 1150 dollar

Kompaniyaning asosiy maqsadi sifatli gadjetni boshqa gadjetlarga nisbatan ko‘proq va arzonroq sotish edi. Kompaniya asosiy foydani telefondan emas balki aksessuar va servislardan chiqarib olmoqchi edi.

Bundan tashqari u: Miped, robotlar, programmalar, aqlli soat(smart wach)lar va boshqa mobil qurilmalarni ishlab chiqaradi

Hozir smartfondan tashqari kompaniyanig: Mobil ilovalari

MIUI

Bu Xiaomi operatsion tizimi Android asosida ishlaydi va ko‘p smartfonlarida aniqlangan. MIUI interfeysi, xar bir foydalanuvchiga ma'noli joylashgan ma'lumotlar tizimi va himoya imkoniyatlarini taqdim etadi. Bu ilova foydalanuvchilar uchun samarali va shunchaki sur'atli ishlaydigan interfeysga ega.

Mi Fit

Bu ilova Xiaomi smart-watch va fitnes-trakerlari uchun mo‘ljallangan. Mi Fit orqali foydalanuvchilar o‘zlarining faolliklarini monitoring qilishi mumkin, masalan, qadam urishlarini, uyqu davriga nazorat qilishni va sport mashg‘ulotlarini kuzatish orqali.

Mi Remote

Bu ilova Xiaomi smartfonlari orqali TV, konditsioner, DVD va boshqa elektron qurilmalarni boshqarishga yordam beradi. Ular infratrood port yordamida elektron qurilmalar bilan aloqada ishlaydi va ularni qulay boshqara oladi.

Mayishiy texnik vositalari:

Uy uchun robotlar

Mi Robot Vacuum

Bu robot ushbu iste'molchilarga qulaylashtirilgan robot-changyutkichdir. U o‘zining xaritadan foydalanib yaxshi taqvimi va o‘zaro yo‘nalishni, masalan, uyda qolgan joylarni topadi va so‘nggi tekshiruv rejimdagi qurilmalarni qulay foydalanish orqali joylashadi

Mi Robot Builder:

Bu robot o‘zgaruvchan qurilma modullarini yig‘ib-qurish imkoniyati bilan ta'minlanadi. U yaxshi tajribaga ega bo‘lgan mijozlarga elektronika va robotikani o‘rganishda yordam beradi

Aksesuarlar

Xiaomi, telefonlar uchun bir nechta turdagi aksesuarlarni taklif qiladi. Masalan:

• Telefon qavatlari: Hard plastik yoki silikon qavatlari, yopiq va ochiq variantlarda mavjud.

• 2. Quloqchinlar: Quloqchinlar ko‘p xil bo‘lib, bepul quloqqa tushiriladigan modellaridan, bluetooth quloqqa tushiriladigan modellariga qadar mavjud.

• 3. Temir qoplamalari: Ekranlar, batareyalar va boshqa zarur komponentlar bilan murojaat etish uchun.

• 4. Portativ zaryadlovchi: Kuchli zaryadlovchi va portativ batareya to‘plamlari.

Arzon bolishi sabablari:

1. Reklamaga raqobatchilariga nisbatan kam pul sarflaydi

Sotsial media

Xiaomi mahsulotlarining reklama qilishda sotsial mediadagi platformalardan foydalanadi. Ular Facebook, Instagram, Twitter, Weibo va WhatsApp kabi platformalarda reklama joylaydi, yangi produktlarni taqdim etish, mahsulotlarining aksariyatini ko‘rsatish va mijozlarga ko‘rsatishlar orqali iste'molchilarning diqqatini jalb etishga harakat qiladi.

Reklama rollari:

Xiaomi mahsulotlarini televizor va internet reklama rollar orqali taqdim etadi. Ular mavjud mahsulotlarni keng ko‘p aksariyat bilan taqdim etish orqali mahsulotlarning ko‘proq iste'molchilar tomonidan tanilishi uchun reklama rollarning keng tarqalganini qo‘llaydi.

Mahalliy hodimlar va ambassadorlar:

Xiaomi mahsulotlarini xalqaro mazkur hodimlar va ambassadorlar orqali tanitishadi. Ular xalqaro mashhur bo‘lgan insonlar, blogerlar va hodimlar orqali mahsulotlarni ijtimoiy tarmoqlar va mahalliy ko‘prik orqali taqdim etadi.

Xiaomi kompaniyasi, o‘zining innovatsion mahsulotlar va arzon narxli mahsulotlari yordamida reklama qilishda ommaviy platformalardan, televizor va internet reklamalardan foydalanadi va o‘z mahsulotlarining ko‘p xil qulayliklari bilan mijozlarning diqqatini jalb etishga harakat qiladi.

2. Yuqori texnologiyalardan unumli foydalanadi.

Kompaniya mahsulot ishlab chiqarishdan tortib uni sotish va mijozlarga yetkazib berishda ham yuqori texnalogiyalardan faol foydalanadi. Bu o‘z navbatida qo‘l mehnatiga bo‘lgan talabni qisqartiradi va harajatni kamaytirib mahsulotni arzonroq bo‘lishiga sabab boladi.

3. Tovarlarni faqat online sotadi. Yani ofline do‘konlarni ushlab turmaydi.

Kompaniyaning mahsulotlarini quyidagi saytlar orqali sotib olishingiz mumkin:

Amazon - Amazon onlayn savdo markazida Xiaomi mahsulotlari to‘plami mavjud.

eBay - eBay orqali ham Xiaomi telefonlari, planshetlari va boshqa qurilmalarni sotib olishingiz mumkin.

Best Buy - Agar AQShda bo‘lsangiz, Best Buy do‘konida ham Xiaomi mahsulotlarini topishingiz mumkin.

AliExpress - AliExpress orqali xalqaro e-tijorat platformasida keng qamrovli Xiaomi mahsulotlarini ko‘rishingiz mumkin.

4. Operatsion tizim ichida reklama beradi.

Xiaomi, o‘zining MIUI (MI User Interface) deb nomlangan operatsion tizimi orqali reklama bera oladi. MIUI, Xiaomi smartfonlariga o‘rnatilgan operatsion tizimdir va bu tizimda Xiaomi kompaniyasining o‘z mijozlariga xizmat ko‘rsatish uchun reklama berish imkoniyati mavjud.

MIUI, o‘rnatilgan ilovalar orqali o‘z mijozlariga reklama bermoqda. Bu reklamalar mobil ilovalar, Xiaomi xizmatlari yoki mahsulotlari haqida e'lonlar shaklida bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, MIUI operatsion tizimi eng katta IT-kompaniyalarning yangi xizmatlarini mijozlarga taqdim etish uchun reklama platformasi sifatida ham faol foydalaniladi.

Xulosa: O‘zbekistonda ham bunday sifatli va arzon mahsulotni ishlab chiqarish mumkin. Buning uchun birinchi navbatda bozor o‘rganiladi hamda istemolchilarning talablari va ular qanday narhlarda sotib olishga tayyorligi aniqlanadi. Ishlab chiqarish uchun chet el tajribasini mukammal bilish lozim.

Ishlab chiqarishda esa quyidagilarga e’tibor berish kerak:

1. Reklama harajatlarini kamaytirirish va jamoatchilikka eng ta’siri yuqori bo‘lgan joylarda reklama berish.
2. Mahsulotlarni online sotuvini keng yo‘lga qo‘yish. Bunda xaridor dunyoning hohlagan joyidan mahsulotni qiyinchiliklarsiz sotib ola olishi kerak va mahsulot haqida yetarlicha malumot olishlarini taminlangan bo‘lishi darkor.
3. Yuqori texnologiyalardan keng va samarali foydalanish. Chet el tajribalarini samarali qo‘llash.
4. Boshqa yirik kompaniya bilan hamkorlik qilib bir birini tovarini sotishda hamkorlik qilish.

Foydananilgan adabiyotlar:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Eng_ko%CA%BBp_sotilgan_mobil_telefonlar_ro%CA%BByxati#cite_note-counterpoint_2021-9
2. https://olcha.uz/oz/category/telefony-gadzhety-aksessuary/telefony

YOSHLARNING O’Z ISHLARINI YETUK MUTAHASISI BO’LISHLARIDA TERAN MEHNATNING-DIQQATNING O’RNI VA AHAMIYATI

Abduqayumov Jaloliddin Jo‘rabek og‘li
TDIU Andijon fakulteti
Iqtisodiyot talim yo‘nalishi 60/23 guruh talabasi
Kurbonov Jasurbek Pozilovich
TDIU Andijon fakulteti
“Mutaxassislik fanlari” kafedrasi mudiri, PhD

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshqaruvda diqqatning ahamiyati, xodimlar samaradorligini va mehnat unumdorligini oshirishga diqqatning ta’siri va uni shakllantirish bo‘yicha ayrim tavsiyalar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *mehnat, diqqat, odat, ish samaradorligi, boshqaruv.*

Bilamizki hozirgi kunda teran mehnatning ahamiyati tobora ortib bormoqda chunki, zamonaviylashayotgan dunyo va chalg‘ituvchi vositalarning ko’pligi teran